



Yevropa Ittifoqining moliyaviy  
ko'magi bilan ta'minlandi



unicef 

Har bir bola uchun

## SURXONDARYO VILOYATIDA INKLIZIV TA'LIM, IJTIMOIY XIZMATLAR VA HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA  
UNICEF TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN LOYIHA

### BOLALAR MASALALARI BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) KOMISSIYALARI TOMONIDAN ISHLARNI KO'RISHDA BOLALARNING HUQUQLARI



Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatlari bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

Aziz bolajonlar barchamizga ma'lumki O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlash muhim hisoblanadi.

**Mamlakatimizda bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida quyidagi komissiyalar tashkil etilgan:**

Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya;

Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalari (hududiy komissiyalari);

Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari.



#### **BOLALAR MASALALARI BO'YICHA MILLIY KOMISSIYA**

---

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil qilingan organ.

Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya hamda hududiy va tuman (shahar) komissiyalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlarga, Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya qarorlariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

**Bolalar masalalari bo'yicha hududiy va tuman (shahar)  
komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilar:**


- voyaga yetmaganlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bolaning ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lishining oldini olish choralarini ko'rish;
- voyaga yetmaganlar bilan ishlash sohasida mavjud bo'lgan kamchiliklarning sabablarni aniqlash hamda ularni hal qilish maqsadida takliflar ishlab chiqish.





Bolalar masalalari bo'yicha hududiy va tuman (shahar) komissiya raisi o'zingiz istiqomat qilayotgan tuman (shahar)ning hokimi hisoblanadi.

Tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu'basi tuman (shahar) komissiyasining ishchi organidir. Ya'ni komissiya faoliyatini tashkillashtirib boradigan va tegishli vazifalarni amalga oshiruvchi idora.



Bolalar masalalari bo'yicha hududiy va tuman (shahar) komissiyasining tarkibi komissiya raisi, rais o'rinosari, komissiya mas'ul kotibi va komissiya a'zolaridan iborat.

### QUYIDAGI ISHLAR TUMAN (SHAHAR) KOMISSIYALARI TOMONIDAN KO'RIB CHIQILADI:

- 14 yoshga to'limasdan jinoyat sodir etgan;
- o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan (masalan, oz miqdordagi o'g'rilik);

- o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alovatlari bo'lgan qilmishlar sodir etgan, ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoyat ishi tugatilgan;
- o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda yo'l harakati qoidalarini buzgan (*masalan, svetaforning qizil chiroq'i yongan vaqtida harakatlanish, piyodalar uchun mo'ljallanmagan yo'llardan kesib o'tish, o'rnatilgan yo'l harakati belgilariga rioya qilmaslik va boshqa harakatlar*);
- boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan (*masalan, piro-texnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi*);
- maktab, kollej va professional ta'lim muassasalarida o'qishdan bosh tortgan (*masalan, ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablersiz kelmaslik, darslarga muntazam ravishda qatnashmaslik*);
- ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган jinoyatni birinchi marta sodir etganligi uchun qonunchilikka asosan javobgarlikdan ozod qilin-gan;
- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar (*masalan, Ichki ishlar, Milliy gvardiya organlari xodimlarining talablarini bajarmaslik, transportdan foydalanish qoidalarini buzish, mayda bezorilik*) sodir etgan bolalar to'g'risidagi ishlar.

## Tuman (shahar) komissiyalarining asosiy vazifasi

ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash, Ichki ishlar organlari bilan birgalikda jamoatchilikning faol ishtirokida yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarga uzrli sababsiz muntazam bormaydigan bolalarni, shuningdek, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan boshqa bolalarni aniqlash hamda ularga yordam ko'rsatishdir.



**BOLALAR MASALALARI BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) KOMISIYASI  
TOMONIDAN KO'RIB CHIQILADIGAN ISHLAR VAQTIDA BOLALAR  
QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:**

Ishga aloqador bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan axborot olish, ya'ni siz ko'rib chiqilayotgan ish yuzasidan turli holatlarni aniqlashtirish maqsadida (masalan, ish nima haqida ko'rib chiqilishi, unga asos, kimlar qatnashayotganligi, komissiya tomonidan qanday choralar ko'riltiganligi va boshqa) ma'lumotlar olishingiz mumkin.

**Qonuniy vakilga ega bo'lish** – komissiya tomonidan ish ko'rib chiqilayotgan vaqtida ota-onalaringiz va boshqa ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan birgalikda ishtirok etishingiz mumkin.

**Advokatdan foydalanish** – o'z huquq va manfaatlariningizni tegishli tartibda himoya qilish maqsadida yuridik ma'lumotga va tajribaga ega bo'lgan shaxs xizmatidan foydalanishingiz mumkin.

**Psixolog va tarjimon xizmatidan foydalanish** – agar ish olib borilayotgan til tushunarsiz bo'lsa tarjimon xizmatidan foydalanishni talab qilishingiz mumkin. Shuningdek, ish jarayonida agar ehtiyoj mavjud bo'lsa, psixolog bilan birgalikda (masalan, bola ta'lif-tarbiya olayotgan muassasadan psixolog bilan) qatnashishingiz mumkin.

**Tuman (shahar) komissiyasi qarori ustidan yuqori komissiyaga yoki sudga shikoyat berilishi mumkin.**

Tuman (shahar) komissiyalari o'z vakolatlari doirasida quyidagi choralarini qo'llashi mumkin:



bolaning jabrlanuvchidan **kechirim so'rashi** to'g'risida qaror qabul qilish;



bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni **ogohlantirish**;



o'n olti yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan bolalarga **jarima solish**;



bolani respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish.

Hududiy, tuman (shahar) komissiyalarining majlisida ishi ko'rيلоятган bolalar, ularning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, himoyachisi, zarur hollarda esa boshqa mutaxassislar bo'lishi (masalan, psixolog yoki ijtimoiy ishchi) shart.



Tuman (shahar) komissiyasi qarori yuzasidan shikoyat tegishliliqi bo'yicha hududiy komissiyaga u chiqarilgan va qaror nusxasi olingan kundan boshlab o'n kun muddat ichida berilishi mumkin.



Komissiyaning qarori va shikoyat bo'yicha chiqarilgan qaror yuzasidan prokuror protest bildirishi mumkin.



Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birqalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalarini amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu

Veb-sayt: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](https://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Veb-sayt: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistonidagi Bolalar jamg'armasi**

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Veb-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>